



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100095, Toshkent sh. 2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2021-yil 20-sentabr

2/10-60-son

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimidagi oliy ta’lim muassasalari rektorlariga (ro‘yxat bo‘yicha)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi PQ–5157-son qarori 7-bandida belgilangan tartiblarga muvofiq 2021/2022 o‘quv yilida respublikaning bir hududidan boshqa hududiga turdosh bo‘lmagan ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishini ko‘chirish va ko‘chirib tiklashga ruxsat etilgan talabalar ro‘yxati yuborilmoqda.

O‘qishi ko‘chirilishi yoki ko‘chirib tiklanishi ijobiy hal etilgan talabalarga uch kun muddatda o‘rnatilgan tartibda xabar berilsin.

Ilovada qayd etilgan fuqarolarni oliy ta’lim muassasasiga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi PQ–5157-son qarori 7-bandida belgilangan tartiblarga hamda Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga qat’iy amal qilingan holda, taqdim etilgan **hujjatlar sinchiklab tekshirilgandan so‘ng quyidagilarni inobatga olgan holda** amalga oshirilishini ta’minlashingiz so‘raladi:

birinchi kursning birinchi semestriga birinchi semestr tugallanmagan holatda o‘qishni ko‘chirilishiga;

O‘zbekiston va xorijiy oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinib qo‘shma ta’lim dasturlari asosida tahsil olayotganlarning o‘qishini ko‘chirilishiga;

maqsadli qabul qilinganlar boshqa ta’lim yo‘nalishi yoki ta’lim shakliga, boshqa oliy ta’lim muassasasiga ko‘chirilishiga;

kechki (smenali) ta’limdan sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limga hamda kechki (smenali) ta’limning bir ta’lim sohasidan ikkinchi ta’lim sohasiga talabalar o‘qishini ko‘chirilishiga **yo‘l qo‘yilmaydi**.

O'qishi ko'chirilishiga ruxsat etilgan fuqarolarning o'qitish ta'lim shaklini belgilash o'rnatilgan tartiblarga asosan fuqarolarning arizalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Talabalarning o'qishini **tabaqalashtirilgan yoki bazaviy to'lov-kontrakt asosida** ko'chirilishini belgilash talaba ishtirokida **uzrli sabablarni asoslovchi hujjatlarning aslini tekshirish** va bayonnoma rasmiylashtirish orqali amalga oshirilishi so'raladi. Bunda:

o'qishi ko'chirilishi so'ralayotgan hududdagi oliy ta'lim muassasalarida mos yoki turdosh ta'lim yo'nalishi **mavjud bo'lmaganligi sababli** turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishiga ko'chirilishi so'ralgan taqdirda **uzrli sabablar inobatga olinadi** va talabaning o'qishi **bazaviy to'lov-kontrakt** asosida ko'chiriladi;

o'qishi ko'chirilishi so'ralayotgan hududdagi oliy ta'lim muassasalarida mos yoki turdosh ta'lim yo'nalishi **mavjud bo'lib**, turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishiga ko'chirilishi so'ralgan taqdirda **uzrli sabablar inobatga olinmaydi** va talabaning o'qishi **tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt** asosida ko'chiriladi.

Talabalar o'qishini ko'chirish va ko'chirib tiklash to'g'risidagi taqdim etilgan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi va ularning qonuniyligi uchun javobgarlik oliy ta'lim muassasalariga yuklatilishini inobatga olib talabalar o'qishini ko'chirish yoki ko'chirib tiklash jarayonida talablarga javob bermaydigan hujjatlar aniqlangan taqdirda oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori) mazkur hujjatlarni tekshirish va buyruq rasmiylashtirmaslik huquqiga ega ekanligi eslatib o'tiladi.

Shu bilan birga, uzrli sabablarga ko'ra o'qishini ko'chirish bo'yicha ro'yxatdan o'tishda tushunmovchilik sababli turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishini tanlagan talabalarga hududdagi oliy ta'lim muassasalarida mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari mavjudligi bo'yicha tegishli tushuntirishlar berish va ularning o'qishini hududdagi mos va turdosh ta'lim yo'nalishlariga ko'chirish bo'yicha vazirlik nomiga yozilgan arizalarini qabul qilish hamda umumlashtirgan holda vazirlikka taqdim etish so'raladi.

Ilova: bet.

**Vazirning birinchi
o'rinbosari,
Komissiya raisi**



K.Karimov